



SHAXSNI KAMOL TOPISHIDA OILALARDA OTA-ONA VA FARZAND MUNOSABATLARI

¹Ro'zimova Shohista Farhod qizi,

²Atadjanova Zilola Bunyod qizi,

³Yoqubova Ògiljon Soliyjon qizi,

⁴Ibragimova Umida Atavulla qizi

“Texnologik ta`lim yo`nalishi” talabalari. UrDPI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7465939>

ARTICLE INFO

Received: 10th December 2022

Accepted: 18th December 2022

Online: 20th December 2022

KEY WORDS

Oilaviy munosabatlar, ota-onalik, ijtimoiy va nasliy omillar, irsiyat, muhit va tarbiya

ABSTRACT

Ushbu maqolada shaxsni kamol topishida oilalarda ota-ona va farzand munosabatlari mazmuni o`rganilgan.

Kirish. Mamlakatimizda oila masalasiga aloxida e`tibor berayotganligi bejiz emas, albatta. YUrtimizning porloq ertasining zamini jamiyatimizning asosiy bug`ini bo`lishi oilada yaratiladi.

Oila shunday muqaddas makonki, unda xayotning davomiyligini ta`minlovchi shaxs shakllanadi, etnik madaniyat, urf-odatlarimiz, axloqiy ma`naviy qadriyatlarimiz saqlanadi va rivojlantiriladi, jamiyat taraqqiyotini belgilovchi iqtisodiy va madaniy xayot poydevori qo`yiladi va mustaxkamlanadi.

Ma`naviy etuk oila - ma`naviy yuksak jamiyat tayanchidir. Oila urf-odatlari, shajarasi, an`analari, axloqiy-ma`naviy qadriyatlarni farzandlar ongiga singdirish, xar bir kishi kasb-xunar malakalari bilan qurollantirish ma`naviy barkamollikni tarbiyalashning asosidir. Joylardagi xotin-qizlar, yoshlar tashkiloti, maxalla oksokollar kengashlari oldida turgan muhim vazifalardan biri oila qadriyatlariga bag`ishlangan suhbatlar konferensiya, munozara, uchrashuvlar, oilaviy bayramlar

kitobxonliklar, san`at asarlari ko`rgazmalari, qo`shiq va raqslar ko`rik tanlovlari o`tkazish, oilaviy folklor etnografik ansambllar tashkil etish, tarixiy joylarga sayoxatlar uyushtirishdan iboratdir.

Oila - tarbiya o`chog`idir. Demak oilada ma`naviy va jismoniy barkamol avlodni tarbiyalash masalasi oila yilida amalga oshiriladigan muhim ish yo`nalishlardan biridir[1].

YOsh avlodning ma`rifatli madaniyatli bo`lib shakllanishi, eng avvalo, oilada boshlanadi. SHuning uchun oilada sog`lom ma`naviy-axloqiy muhitni vujudga keltirish va mustaxkamlash umumdavlat ahamiyatiga ega. SHunga ko`ra, oila va Oilada bola ta`lim - tarbiyasi ijtimoiy-siyosiy, ma`rifiy -tarbiyaviy jixatdan dolzarb (masala) bo`lib, uni milliy qadriyatlardan chuqur va xar tomonlama foydalanish bilan bog`liq jixatlarni tadqiq etish mustaqillik davrining muhim talabidir.



Bolalarda manfaatdorlik, ishbilarmonlik xissini tarbiyalash o'zbek oilalarda juda qadimdan mavjud. Uning barcha jixatlari oila xayotida namoyon bo'lib kelgan va ma'naviy qadriyat sifatida avloddan-avlodga o'tib kelgan. Bugungi kunga bu qadriyatlar o'zining barcha qirralarini ko'rsatib, yangi ijtimoiy munosabatlar shakllanishining muhim omili xisoblanib kelmoqda.

Bolalarni milliy mustaqillik ruxida tarbiyalash ularning milliy g'urur, milliy ong va o'z-o'zini anglash, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishni taqozo etadi. Bolaga Vatanga mexr g'oyasini singdirish, millat o'tmishiga, uning qadriyatlariga bo'lgan xurmat xissini tarbiyalashdan kelib chiqadi. Ota-onani bolaga, bolani ota-onaga bo'lgan mexr-muxabbati Vatanga bo'lgan muxabbat bilan yo'g'rilgan bo'lishi kerak. Mustaqillik sharoitida oila, oilaviy munosabatlar va oilaviy tarbiyaga yangicha yondashishning moxiyati xam ana shundadir.

Hozirgi yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoit xalq ta'limi konsepsiyasidan kelib chiqqan xolda oilada ota-onalar bilan farzandlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni, oila bilan maktab, oila bilan maxalla, oila bilan mehnat jamoalari umuman oila bilan keng jamoatchilik o'rtasidagi aloqalarni o'z ichiga oladigan (yangi oila tizimi konsepsiyasidan kelib chiqqan xolda oilada ota-onalar bilan farzandlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni, oila bilan maktab, oila bilan maxalla, oila bilan mehnat jamoalari, umuman oila bilan keng jamoatchilik o'rtasidagi aloqalarni o'z ichiga oladigan) yangi tarixiy vaziyat talablarni nazarda tutadigan yangi oila tizimi konsepsiyasini ishlab chiqish zaruriyatini tug'dirmoqda. Bu konsepsiyada milliy, umuminsoniy, diniy,

xududiy, demografik xususiyatlar xisobga olingan xolda oilaviy tarbiya nazariyasi va amaliyotining asosiy mazmunini ochib berilmog'i zarur.

Muammoning o'rganilganlik darajasi.

Yuqoridagilarga suyanan xolda biz mazkur muammoni chuqur o'rganib va taxlil qilib, bugungi kun amaliyotiga javob beradigan o'zimizning nazariy xulosalarimizni o'rtaga tashladik. Ular bizning ilmiy konsepsiyamiz sifatida xozirgi zamon pedagogika fani rivoji uchun xizmat qilishi mumkin.

1. Yangi ijtimoiy - tarixiy sharoit oila, oilaviy munosabatlar va oilaviy tarbiya xam jiddiy o'zgarishlarni taqozo etmoqda. Bolalarni mustaqillik ruxida, yangicha fikrlovchi shaxslarni tarbiyalash oiladan boshlanishini e'tiborga olib, oilaviy tarbiya mazmunini qaytadan ko'rib chiqish va uni yanada boyitish, uning asosiy yo'nalishlarini belgilash va shu asosda maqsad va vazifalarni xam ularni qanday vositalar bilan amalga oshirish yo'llarini aniqlash muhim ijtimoiy - pedagogik zaruriyatdir[2.35b].

Ana shu zaruriyatdan kelib chiqqan xolda oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish masalasi ijtimoiy siyosiy va madaniy ma'rifiy ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, mazkur masalalarni xalq etish ancha murakkab va ziddiyatli bo'lib, unga vorisiylik va tarixiylik nuqtai nazaridan yondashishini talab etiladi.

Milliy istiqlol rivojlanishining xozirgi bosqichida oilaviy tarbiyada milliy qadriyatlardan foydalanishning yangi mezonlarini o'rtaga tashlamoqda. Bu mezonlar vatanparvarlik, milliy gurur, milliy ong, milliy o'z-o'zini anglash, milliy tafakkur, milliy tarbiya kabi tushunchalarda o'z ifodasini topgan bo'lib,



ular tarbiyaviy jarayonining bugungi kunda rivojlanishi uchun muayyan tarzda bir maqsadga qaratilganligini taʼminlaydi.

2. Muammoning ilmiy taxlil qilishda uning mazmunini ochib beradi asosiy tushunchalarni izoxlash zarur. Oilaviy tarbiyaning mohiyatini toʻgʻri tushunish uchun pedagogik muammo sifatida tadqiq etish imkoniyatini ochib beradi. Shunga koʻra, biz «Oilaviy tarbiya» tushunchasiga chuqur va xar tomonlama yondashib, u ota-onalarining oʻz xayotiy faoliyatlari, turmush tarzlari, anʼanalari yordamida bola shaxsiga siyosiy, xuquqiy, axloqiy, estetik, diniy qarashlar, gʻoyalar va tasavvurlarni shakllantirishni nazarda tutib, bir maqsadga qaratilgan xolda muntazam olib boriladigan izchil maʼnaviy taʼsir oʻtkazish jarayonini ifodalaydigan pedagogik tushuncha degan xulosaga keldik.

3. Milliy axloq ota-bobolarimizning tarixiy tajribalari, davrlar sinovdan oʻtgan xayot saboqlari va oʻgʻit koʻrsatmalari jamuljamdir. Ana shu tufayli milliy axloqiy qadriyatlarimiz asrlar osha avlodlardan-avlodlarga oʻtib kelmoqda.

Har qanday axloqiy fazilat u yoki bu yoʻsinda insonda xatti-xarakat tartibga solinishining ifodasi boʻlib, insonga boʻlgan xurmat eʼtibor, mexr-muxabbatni bildirar ekan, u umubashariy mazmunni beradi. Zotan, xar qanday shaxs odamzotning bir zarrasi ekan, unda butun odamzotning mohiyati mujassam, shuning uchun xam butun insoniyatga mansubdir. SHunga koʻra, xar bir ota-ona oʻz farzandi tarbiyasida, uni barkamol inson boʻlishida umuminsoniy maʼno va mazmunni koʻrmogʻi lozim. Bolaning axloqiy fazilatlari umuminsoniy xarakter kasb etib umumbashariy qadriyatga aylanishini anglab etgan ota-ona farzandlari

tarbiyasidagi maʼsuliyatni chuqur xis qilmoqlari maqsadga muvofiqdir.

4. Milliy axloq milliy tarbiya natijasida tarkib topadi. Milliy tarbiya negizida oilaviy tarbiya yotadi. Oilaviy tarbiya esa tarixan tarkib topgan xalq pedagogikasiga asoslanadi. Xalqning tarbiya xaqidagi qarashlari oddiy emperik bilimlardan iborat boʻlibgina qolmasdan balki tarixiy jarayonda toʻplangan xayotiy tajribalari, turmushi saboqlar natijasida muayyan darajada tartibga tushirilgan qarashlarning tizimidir. Bu tizim xalqning oilaviy xayoti, anʼanalari, urf - odatlari, turmush tarzi, maishiy turmush va milliy ruhiyati bilan bogʻliq jixatlarni oʻz ichiga oladi.

5. Oilada shaxsni maʼnaviy-axloqiy shakllantirishi bolaning tugʻilishi boshlanadi va u oilaviy munosabat, xarakteri, ota-onalarning namunasi, ulardagi umumtaʼlim darajasi, umummadaniy saviyasi, xamda umumpedagogik madaniyati va oilaviy xayotini tashkil etishdan iborat. Bu omillar oilada bolaning maʼnaviy - axloqiy tarbiyalashning mazmunini tashkil etadi va ular bir qator pedagogik xususiyatlarni oʻz ichiga oladi. Bularni xisobga olish bolani maʼnaviy-axloqiy tarbiyalashda milliy axloqiy qadriyatlardan foydalanishning mohiyati oʻziga xosligi va ahamiyatini bilishga yordam beradi.

6. Inson butun mavjudodlar ichida eng ulugʻi, barcha narsalar uning uchun yaratilgan, degan goya islomiy maʼnaviyatning negizini tashkil qilsa, insonlarning oʻzaro maʼnaviy oqibatli boʻlishiga undash va ularda oliyanob fazilatlarni shakllantirish islom pedagogikasining asosidir.

Oʻzbek oilalarda keng tarqalgan xalollik, toʻgʻrilik, birovlar xaqiga xiyonat qilmaslik, xayri-exson, soxovat va muruvvat,



tejamkorlik va isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik kabi fazilatlar milliy va diniy qadriyatlar zamirida shakllangan va ular oilaviy tarbiya natijasida ota-onalaridan bolalariga o'tib ularning ma'naviy dunyosini boyitgan[3.38].

Bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda maxallalarining roli katta. Chunki, qadimdan o'zbek maxallalari o'z-o'zini boshqaruv shakli sifatida ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy ishlarni olib borish maskaniga aylangan. Ayniqsa, maxalla oqsoqqollari oilalarni inoq va xamjixat bo'lib yashashga aloxida e'tibor berganlar. Oilaviy nizolarni maxalla faollari bartaraf etganlar. Maxalla bolalarning tarbiyasi xam ularning e'tiboridan chetda qolmagan. SHunga ko'ra, maxalla o'zbek xalqi tarixiy taraqqiyotining barcha bosqichlarida muhim ro'l o'ynab kelayotgan va milliy qadriyatga aylangan ijtimoiy-siyosiy tuzilmadir. Maxallada tarbiyaviy ishlar birinchi maqsadga qaratilgan xolda olib borilishi, ularning obro'yini ta'minlash va oilani mustaxkamlash borasidagi faoliyatini muvaffaqilashtirish zarur bo'ladi. Oila-maktab-maxalla xamkorligini ta'minlaydigan ilmiy konsepsiya ishlab chiqilishi va uni amalga oshirishni ta'minlaydigan ijtimoiy-siyosiy tizim - Maxalla jamgarmasi faoliyatini aktivlashtirish maqsadga muvofiq deb xisoblaymiz.

Ota-onalar vaqt topib, bolalari bilan suxbat qilib turishlari, ularga ertak va xikoyalar aytib berishlari katta ahamiyatga ega. Masalan, Xamza Xakimzoda Niyoziyning yoshlik chog'ida uning onasi Xosiyat opa ertak, matal, xikoyalar aytib bergan. U onasining ertaklarini zavq-shavq bilan tinglar onasi ashula aytganda esa kichkina Xamza darrov o'yinni yig'ishtirib, quloq solar ekan.

Oiladagi o'zaro munosabatlarda va turmushda go'zalikka e'tibor berish xam aloxida ahamiyatga egadir. Agar ota-ona va oiladagi kattalar o'zaro munosabatlarida go'zalikka e'tibor bersalar, oila muomalasida axillik, samimiyat, xurmat bo'lsa, shu oilada tarbiyalanayotgan farzandlar xulqida yuqoridagi kabi axloqiy fazilatlar tarkib topib boradi. Demak, oiladagi estetik tarbiya ota-onalar va boshqa katta kishilarning o'zaro to'g'ri munosabatidan boshlanishi kerak[3.33b].

Bolalar kattalarning yurish-turishlarini, muomalasini, qo'shnilari, o'rtoklari bilan qanday gaplashishlarini kuzatadilar. SHuning uchun yosh bolalar oldida maqtanish yoki boshqalarni g'iybat qilish mutlaqo yomon odat bo'lib, bolalarga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Agar bolaning otasi yoki onasi boshqalarga nisbatan qo'pol, badfe'l bo'lsa, serjaxl bo'lsa, arzimagan narsalar ustida g'avg'o ko'tarsa, o'z bolasining asabini buzadi, bu xol bolaning psixikasiga yomon ta'sir etadi. Bunday sharoitda estetik tarbiyaga o'rin qolmaydi. Bolalarni estetik xislari barkamol kishilar qilib voyaga etkazish uchun oiladagi kattalar o'zlari estetika talablariga tula amal qiladigan kishilar bo'lishlari lozim.

Oilada bolalarni saranjom-sarishtalikka, ozodalikka o'rgatish, o'z buyumlarini, kiyim-kechaklarini extiyot qilishga odatlantirish ularda intizom tarbiyalaydi.

Atoqli pedagoglar turmushda kamtarlik, oddiylik kishining yaxshi sifati ekanligini ta'kidlab ko'rsatganlar. Xonalarni ortiqcha bezatishni kamtarlik deb bo'lmaydi, xonalarni ortiqcha bezatish bolada go'zallikka nisbatan noto'g'ri tasavvur tarbiyalaydi.

SHuni ta'kidlash lozim-ki, bola ota - onaning va kattalarning kiyim - kechagini,



fe'l-atvorini sinchkovlik bilan kuzatadi. SHuning uchun ota-onalar bolalarning bu xususiyatiga befarq qaramasliklari kerak.

Oilada ota-onalar bolani hozirgi zamon talabiga muvofiq, sodda, lekin chiroyli kiyinishiga ahamiyat berishlari kerak. bolalarning o'z kiyimlarini ozoda tutishga, saranjom bo'lishga o'rgatish estetik tarbiyaning muhim talabidir. Demak, bolani estetik jixatdan tarbiyalash uchun oilada o'zaro to'g'ri munosabat o'rgatish, saranjomlik va ozodalik qaror topishi, madaniy kiyinishi-turmushdagi go'zallikka zamin xozirlaydi.

Ota-onaning farzand oldidagi burchi qanchalik ma'suliyatli bo'lsa, farzandning xam ular oldidagi burchi shunchadik muhimdir.

Ota-onani xurmat qilish, ularni xech qachon dilini ranjitmaslik, itoatli bo'lish, kesayishganda moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash, ular qurgan oila deb atalmish qal'aning axloqiy-ma'naviy poydevorini mustaxkam saqlash, an'analarni doimiy davomchilari bo'lish, ularning do'stlari, yoru birodarlarning xam izzat - xurmatlarini doimo qadrlash va yod etish-farzandning burchi.

Ota-ona oldidagi o'z vazifa va amallari bo'lib, ularga to'liq amal qilgan er - xotin axil-inoq, baxtli turmush kechiradi. Oilada ota-onaning vazifasi ota-onasi, turmush o'rtog'i va farzandlari o'rtasidagi munosabatlarini samimiy bo'lishni, turli nizolarni bartaraf etish yoki oldini olish chora-tadbirlarini belgilaydi. «Onangni bir qo'lingda, xotiningni esa ikkinchi qo'lingda ko'targin», degan purxikmat maqolning mazmunida xam erkak kishining ota-ona va xotinga munosabatda bir xilda bo'lishi lozimligiga ishora etiladi.

Ota - oilaning moddiy ta'minotchisi, urning topganini isrof qilmasdan, rejali, tejab sarflash xotinning vazifasidir[4.49b].

Oilada otaning xalloligi, rostgo'yligi, adolatliligi, tadbirkorligi, bola tarbiyasida qattiq qo'lligi esa bu oilada tartib-intizom mezonidir. Oilani moddiy tomondan ta'minlaydigan erkaklarning xotini, farzandlari, xatto qaynota- qaynonasi oldida xam obru-e'tibori past bo'ladi. Ba'zi oilalarda xotin kishining barcha masalalarda «ovozi»ning balandligiga sabab xam uning toparman-tutarmanligidandir. Lekin, oilani moddiy barqaror qilaman deb, turli yomon yo'llarga kirgan ayollar xam onda-sonda bo'lsada uchrab turadi. Bunday ayol er sha'nini toptashdi, muqaddas oilaga xiyonat, farzandlar boshini esa xam qiladi, avlod-ajdodlariga isnod keltiradi. SHuning uchun oilani moddiy ta'minoti erkak zimmasiga bo'lmog'i zarur.

Oila boqayotgan otani ko'rgan og'il kelgusida o'zi mustaqil oila tebratishga, ota topib-tutib kelgan narsalarni saranjom-sarishta qilib, tejab-tergab sarflayotgan onani ko'rgan qiz esa kelgusida bir oilani ayol sifatida baxtli qilishga tayyor bo'lib boradilar. Otadagi ishbilarmonlik, tadbirkorlik, muomala madaniyati, bosiqlik, talabchanlik, ko'p xunarlilik, xalollik, adolatparvarlik, oilasiga, xotiniga nisbatan sadoqat shu oilada o'sayotgan farzand uchun xayot maktabi, namuna maktabidir. Oilada onaning roli otanikidan kam emas. Xalqimiz «Erkak kishi bosh bo'lsa, xotin kishi bo'yin» deb bejiz aytmagan.

Xulosa. Oilada ota-onaning birgalikdagi o'zaro muxabbati asosida qurilgan oilani muqaddas saqlash, uni moddiy va ma'naviy barqarorligini ta'minlashda xamkor va xamfikir bo'lish asosiy



vazifalaridan biri xisoblanadi. Oiladagi maʼnaviy sogʻlom muhitni yaratish xam ota, xam onaga bogʻliq. Baʼzan jaxl chiqqanda bir-birini tushunish va eʼzozlash, bir-biriga ishonch, mehnat taksimotini toʻgʻri yoʻlga kuyish, farzand tarbiyasida bir xilda maʼsullik ota-onaning oila oldidagi burchidir.

Farzand oldidagi burchini toʻliq ado etish ota-ona uchun xam farz, xam qarzdir. Farzandni sogʻlom dunyoga keltirish, unga chiroyli ism qoʻyish, tarbiya berish, ilm oʻrgatish, kasb-xunarli qilish, balogʻatga etganda uylantirish yoki turmushga berish, xayotda toʻgʻri yoʻl koʻrsatish shular jumlasidandir.

References:

1. Mirziyoev. SH.M. «Erkin va farovon, demokratik Oʻzbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz» mavzusidagi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bagʻishlangan Oliy Majlis palatalarining qoʻshma majlisidagi nutqi. - T.: «Oʻzbekiston», 2016. - 56 b.
2. Shaumarov Gʻ.B. Oila psixologiyasi./ Akademik litsey va kasb-xunar kollejlari uchun oʻquv qoʻllanma.- T.: Sharq.- 2000.
3. Nishanova Z.T. Yoshlarning mustaqil fikrlash xaqidagi qarashlarining psixologik taxlili. Pedagogika va psixologiya fanlari soxasidagi ilmiy ishlar tanlovi gʻoliblarining maqolalar toʻplami. -T.: Uz PFITI.- 1999.
4. Inomova O. «Farzand-nixol, ota-ona bogʻbon» Toshkent, «Oʻqituvchi» 1994 y.